

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

“OSHIQ G‘ARIB VA SHOHSANAM” DOSTONINING LISONIY O‘ZIGA XOSLIKLARI

Muhabbat JUMANYAZOVA,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası prof.v.b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292487>

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining lisoniy o‘ziga xosliklari haqida so‘z yuritiladi. Unda dostonning til xususiyatlari tahlil qilinib, uning qissaxonlik qonun-qoidalariga moslashtirilganligi, forsiy, arabiy leksika salmoqli o‘rinni egallashi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: doston, “Oshiqnoma” dostonlari, og‘zaki va yozma nutq xususiyatlari, xalq maqollari, doston leksikasi, iboralar, yozma manba.

Аннотация. В данной статье рассматриваются языковые особенности эпоса «Ашик Гариб ва Шахсанам». Анализируются языковые особенности эпоса, показывается, что он адаптирован к правилам повествования, а также важное место занимают персидская и арабская лексика.

Ключевые слова: эпос, эпос «Ашикнома», особенности устной и письменной речи, народные пословицы, лексика эпоса, словосочетания, письменный источник.

Abstract. This article discusses the linguistic peculiarities of the epic "Ashiq Gharib va Shohsanam". It analyzes the language features of the epic, shows that it is adapted to the rules of storytelling, and that Persian and Arabic lexicons occupy an important place.

Key words: epic, "Ashiqnoma" epics, features of oral and written speech, folk proverbs, lexicon of the epic, phrases, written source.

Xalqlarning dunyoqarashi, ma‘naviy-estetik hamda falsafiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan folklor asarlari g‘oyat nodir manba sifatida nafaqat folklorshunoslar, balki tilshunoslar uchun ham muhim hisoblanadi. Binobarin, dunyo tilshunosligida folklor tili sohasining pragmatolingvistik, lingvokulturologik, etnolingvistik va psixolingvistik xususiyatlarini yoritish soha taraqqiyotini ta‘minlaydigan muhim omillardan sanaladi.

Xalq dostonlari ajdodlarimizning ko‘p asrlik badiiy tafakkur durdonasi sifatida ulkan ma‘naviy qadriyat sifatida alohida ajralib turadi. Ularning til xususiyatlarini tadqiq qilish esa folklor tili sohasining yangi zamonaviy ilmiy-nazariy yo‘nalishlarini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.

“Oshiq G‘arib” (armancha *Աշիկ Գարիբ*; gruzincha *აშოკ ჯგერბო*; qirim-tatarcha *Yolcu Ğarip*; turkcha *Aşık Garip*; turkmancha *Şasenem-Garyp*) Janubiy Kavkaz, O‘rta Osiyo va Yaqin Sharqda keng tarqalgan xalq ertagi. Shuningdek, u oshiqlar tomonidan ijro etiladigan lirik doston hisoblanadi, bundan tashqari, u

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

mashhur folklor sujeti (“er xotining to‘yida ishtirok etadi”) asosidagi epos janriga ham mansubdir. Doston o‘g‘uz-turk kelib chiqishiga ega. 1837-yilda Mixail Lermontov ertakning Ozarbayjoncha variantini ilk bor yozganidan va yozuv 1846-yilda nashr etilganidan so‘ng, asar rus tilidagi muhitda keng shuhrat qozondi. Shuningdek, dostonning arman, gruzin, turk, turkman va boshqa versiyalari ham mavjud. Gruzin va armanlar orasida Oshiq G‘arib haqidagi rivoyat Ozarbayjon xalqi bilan muloqot natijasida tarqalgan. Asarda boylik, zodagonlikka qarshi ma’naviy ne‘matlar kuchi qarshilik ko‘rsatadi.[https://az.wikipedia.org/wiki/Ashiq_Qarib_dastani]

Doston sujetining boshqa bir versiyasi keyingi yillarda Ozarbayjon oshiqalaridan M.Mahmudbegov tomonidan yozib olinadi va u 1882-yilda “Kavkaz hududlari va xalqlarining tasviri uchun materiallar to‘plami”da nashr etiladi. Keyinchalik 1916-yildan boshlab “Orujov birodarlar bosmaxonasi”da doston Ozarbayjon va turk tillarida bir necha marta nashr etiladi. O‘sha nashrlardan o‘z mazmun to‘liqligi va san’atkorlik jihatidan Ganja versiyasi ko‘proq tinglanib qabul qilinadi. Doston Ozarbayjonda va Anadoluda keng shuhrat topadi va tarqaladi. Dostonning Ozarbayjonda o‘n, Anadoluda yetti versiyasi mavjud. Doston haqida akademik H.Arasli, professorlardan M. Tahmasib, P.Afandiyev, A.Nabiyev va boshqalarning tadqiqotlari bor. Akademik H. Arasli va filologiya bo‘yicha falsafa doktori S.Yoqubovanning qaydlariga ko‘ra, Oshiq G‘arib tarixiy shaxs bo‘lib, XVI asrda yashab ijod qilgan va Tabriz oshiqlar maktabining ko‘zga ko‘ringan san’atkorlaridan biri bo‘lgan.

Turkman olimlarining qayd qilishicha, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni Andalib ijodiga mansub deb taxmin etiladi. Bu dostonlar XX asr boshlarida Toshkent, Buxoro, Samarqand, Kogon va Xiva shaharlarida toshbosma usulida ketma-ket chop etilgan, qo‘lyozma tarzida ommalashtirilgan [Sobirova N.4:119].

S.Ro‘zimboyev dostonni o‘z tadqiqotlarida turli munosabat bilan o‘rganadi, jumladan, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni leksikasi haqida ham so‘z yuritadi. Xususan, dostondagi bir to‘rtlik misolida unda hammasi bo‘lib 19 ta so‘z ishlatilgani, ularning 6 tasi turkiy (*bu, ko‘z, olur, ko‘ngil, yoqar, bordur*), 9 tasi forsiy bo‘lib (*notavon, zor, jon, shirin, guftor, raftor, xush, shona, tillo*), 4 ta so‘z (*ishq, g‘amza, ajab, sanam*) tarixan arab tiliga mansubligini ta’kidlaydi [Ro‘zimboyev S.3:27].

N.Sobirova to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Mazkur dostonning til xususiyatlari qissaxonlik qonun-qoidalariga to‘la moslashtirilgan. Unda forsiy, arabiy leksikaga ko‘proq murojaat qilingan [Sobirova N.4:127]. Shuningdek, asar til xususiyatlari

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

haqida ayrim o‘rinlarda M.Matquliyeva ham o‘z mulohazalarini bayon qiladi [Matquliyeva M.1:90-92; Matquliyeva M.2:40-42].

Dostonning “Oshiqnoma” dostonlari ichida eng mashhuri ekani ham bejiz emas. Uning tili og‘zaki nutq ham yozma nutq xususiyatlarining o‘zaro omixtalashgan, badiiy bo‘yoqlar bilan bezalgan tildir. Bu hol doston tilining barcha sathlarida seziladi. Masalan, quyidagi parchada xalq maqollarini ishlatish orqali irsoli masal yuzaga keladi:

Judo tushdim debon g‘amgin bo‘lmasin,
Manmanlikning oxir zavoli bordur.
Ayroliq dardidin guldek so‘lmasin,
Bu kamlikning oxir kamoli bordur [Xorazm dostonlari.5:13].

Mazkur parchada *kamtarga kamol, manmanga zavol maqolidan* qahramon qahramon xarakteri va ruhiyatiga mos tarzda foydalanilgan.

Quyidagi o‘rinlarda nopisand qaramoq ma’nosidagi *yuzini chitmoq* iborasi ishlatiladi: “Dushman biza *yuzin chitdi*, G‘aribjon”. Shuningdek, ushbu Shohsanam va G‘arib dialogida *sari tovuq somon sochar, o‘z k...ini o‘zi ochar* maqoli sayqallangan badiiy asar tili hamda tinglovchilar davrasiga mos tarzda ishlatilgan:

Bir ta’na so‘z bilan nechun qocharsan,
O‘z aybingni o‘zing nega ocharsan?
Oshiq bo‘lsang necha yonib o‘charsan?
Sabr qilsang so‘ngra visoli bordur.

Yozma adabiyotda bo‘lgani kabi dostonlarda ham irsoli masal hosil qiluvchi maqollar aynan yoki ayrim o‘zgarishlar bilan ishlatilishi mumkinligini *sabr qilsang, g‘o‘ladin halvo bitar* (xorazmlik keksalar nutqida ushbu maqol dostonlar va mumtoz adabiyot ta’sirida aynan *g‘o‘ladin* shaklida ishlatiladi – M.J.) maqolining “*Sabr qilsang so‘ngra visoli bordur*” shaklida kelgani ham ko‘rsatadi.

Dialogning quyidagi bandida *bag‘rni yirtmoq* iborasini xalqning yorqin obrazli tafakkurining namunasi sifatida ko‘rsatish mumkin. Aslida o‘xshatish asosidagi ushbu ibora N.Mahmudov e’tibor qaratgan “Alpomish” dostonidagi *yurak-bag‘ri qabardi* iborasi ruhi va qolipidagi birlik sanaladi. Bundan tashqari ushbu bandda *har kallada bir xayol, kal kallada bir xayol* maqoliga ham ishora qilingan:

Qayg‘uni ko‘p etsang mehnating ortar,
Ayroliqning tig‘i *bag‘rimni yirtar*,
Yolg‘ondur bu so‘zlar taqdira tortar,
Har kishining yuz ming xayoli bordur.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Bugungi kunda ortiq chidash imkoni yo‘q ma’nosidagi *pichoq borib suyakka taqaldi* iborasi dostonda *pichoq ustixona yetdi* shaklida ishlatilgan:

Sanam aytur: so‘zim qabul etmasang,
Mani bir kechada olib ketmasang,
O‘zga yerga borib makon tutmasang,
Pichoq ustixona yetdi, G‘aribim.

Mazkur iboraga o‘xshash bo‘lgan iboralar dunyoning boshqa tillarida ham mavjud. Bunday iboralar odatda sabr tugaganligini, vaziyatning chidab bo‘lmas darajaga yetganligini ifodalaydi. Masalan, rus tilida *terpeniya perepolnilas* (sabr kosasi to‘lib toshdi) iborasi o‘zbek tilidagi xuddi shu shakldagi va *pichoq suyakka qadaldi* iborasiga juda yaqin ma’noda keladi. Shuningdek, bu mazmun rus tilida *doshlo do ruchki* (oxiriga yetdi), ingliz tilida *The last straw* (oxirgi somon), *At one's wit's end* (aqlning oxiriga yetdi), *To be fed up* (behib ketmoq), fransuz tilida *La coupe est pleine* (kosa to‘ldi), nemis tilida *Das Maß ist voll*, turk tilida *Bıçak kemiğe dayandı* kabi iboralarga muvofiq keladi.

Doston leksikasi xalqimizning o‘tmish an’ana va odatlari bilan tanish bo‘lishda, hayot tarzini o‘rganishda ham muhim ma’lumotlar beradi. Masalan, dostonda qo‘llanilgan *gahvorabaxsh* etnografizmi endi tug‘ilgan o‘g‘il va qizni kelajakda er-xotin bo‘ladi deb ahdlashish, beshikkertini ifodalaydi: “Aytmag‘ilkim, podshohning qizi saning birla *gahvorabaxshdur*” [Xorazm dostonlari.5:8]. Bu udum “beshikquda”, “gahvorabaxsh”, “etak yirtidi”, “etak chatdi” kabi nomlar bilan ham atalishi qayd etiladi [Shamsiyeva Z. 7:584]. Go‘daklikdagi unashtirish an’ansi dunyoning turli madaniyatlarida mavjud bo‘lgan va Sibir tatarlari, oltoyliklar, boshqirdlar, chuvashlar, Volgabo‘yi va Kavkaz xalqlari, Hindiston va Pokisitonda ushbu udum bugungi kunda ham mavjud. Hindistonning ayrim qishloq joylarida, garchi qonun bilan taqiqlangan bo‘lsa-da, bolalar nikohi hamon amalda. Bu an’analar, kasta tizimi va qashshoqlik bilan bog‘liq.

So‘zning *gahvora* گھواره qismi o‘rta fors (pahlaviy) tilidagi *gāwāra* so‘zidan kelib chiqqan. So‘zning ildizi *gah* گه bilan bog‘liq bo‘lib, bu komponent vaqt yoki joy degan ma’noni anglatadi. Bu esa beshik bola ko‘p vaqt o‘tkazadigan joy ekanligini ko‘rsatadi.

Doston leksikasi bugungi kunda arxaizmga aylangan ayrim birliklarning davr tilida faol qo‘llangani haqida mulohaza qilishga undaydi. Masalan, *nor* so‘zining anor ma’nosi ham, olov ma’nosi ham, erkak tuya ma’nosi ham Xorazm dostonlarida faol ishlatilgan.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Quyidagi misralarda yuqorida qayd etilgan *norning* anor ma’nosi ishlatilgan:

Ko’nglim bog‘lanmishdur ko’ksing *norina*,

Buynim bog‘lanmishdur zulfing torina [Xorazm dostonlari. 5:36].

So‘zning erkak tuya ma’nosi esa quyidagi misralarda kuzatiladi:

Ham baxtim, madorim *norim* san eding,

Bolam, sani bir Ollog‘a topshirdim [Xorazm dostonlari. 5:16].

Nor so‘zining olov ma’nosi quyidagi misralarda uchraydi:

Yorim deyub nalar yondim o‘tinga,

Qaqnus kuyan *nor* ekaning bilmadim [Xorazm dostonlari. 5:51].

Nega munda ishq oshin ichgan erkan,

Zahri qotil *nori so‘zon* degaysan [Xorazm dostonlari.5:55].

Quyidagi misralarga diqqat qaratsak:

Sanam soldi yovuz darda,

Yor-yor deyub yot ellarda,

Chiday olmay ohi sarda,

Bir vatan tutmali bo‘ldim [Xorazm dostonlari.5:15].

Ushbu parchada ishlatilgan *ohi sard* (sovuq oh) birikmasini doston tilidagi mumtoz adabiyot ta’sirida shakllangan birikmalardan sanashimiz mumkin.

Shuningdek, doston tilida o‘ziga xos lug‘aviy birliklar – baxshilar tomonidan tilimiz qonuniyatlari asosida yaratilgan yoki davr so‘zlashuv tilidan olib kirilgan so‘zlar ham uchraydi. Shulardan biri *podabon* mol boquvchi, *podabonliq* mol boquvchilik, *podachilik* ma’nolarida ishlatilgan: “Alqissa, qarindoshlari G‘aribni bir uzoq cho‘lg‘a olib borib, *podabonliqq‘a* soldilar. Ammo G‘arib bechora bir necha vaqt *podabonliqq‘a* mashg‘ul bo‘ldi. Bir cho‘pon birlan do‘st bo‘ldi. Ammo kunlardan bir kun G‘arib *podabon* bo‘lg‘onini hisob qildikim, besh yil bo‘libtur. Ammo Shohsanamni yod qilib, zor-zor chun abri navbahor yig‘lab, o‘shal cho‘pon jo‘rasining yonig‘a keldi” [Xorazm dostonlari. 5:17].

Ushbu parchadagi *podabon* so‘zi tarkibida *poda* so‘zining o‘zi tarixan ikki tarkibiy qismdan iborat: *pod* va *-a*. Uning *podshoh* so‘zi tarkibida ham mavjudligidan *pod* jamoa, to‘plam, jamlanma ma’nolarini anglatishi ko‘ramiz. Cho‘pon so‘zining o‘zi ham qadimgi eroniy tilida aynan qo‘yni qarovchi (fsho‘bon//sho‘bon) ma’nosini berishi bu *podabon* ham ayni shu mazmuniy qolip asosida yasalganini ko‘rsatadi.

Doston tilining o‘ziga xosliklaridan biri uni kuylagan baxshi, baxshilarning ustozlari, ko‘chirgan kotiblarning eroniy tilli aholiga aloqador bo‘lgani ehtimolini o‘rtaga tashlaydi. Sababi dostonidagi ayrim eroniy so‘zlar o‘zbek tilida

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ishlatilmaydigan ma'nolarni kasb etadi. Shu bilan birga dostonda Xorazm vohasi shevalarida ishlatilmaydigan eroniy o'zlashmalar ham mavjud. Masalan, o'zbek tilida *banda* so'zi aynan kimningdir quli (ijtimoiy-siyosiy termin sifatida) ishlatilmaydi. Bu ma'noni asosan yozma manbalarda uchratishimiz mumkin. Masalan, Ogahiy tarixiy asarlarida *banda* so'zining ijtimoiy-siyosiy termin sifatidagi *qul* ma'nosi kuzatiladi [O'razboyev A. 6:82]: “Biz hanuzg'acha *banda* berib hur sotg'un olg'on erasmiz”. Dostonda *banda* so'zining mana shu ma'nosi asosida yana bir ijtimoiy-siyosiy termin *banda bozori* – qul bozori shakllangan: “Kampir qabul qildi. Erta G'aribni *banda bozorig'a* olib keldi”.

Quyidagi mikromatn ichida qorin ma'nosidagi *ishkanba*, pokiza ma'nosida *botamiz* so'zlarining qo'llanishi ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi: “Ammo G'arib boshig'a qo'yning *ishkanbasini* tortdi va yuziga qaro surtdi. Bir habash qulning suvratig'a ega bo'ldi. Ammo Shohsanamning Gulnihol degan bir kanizi bor erdi. Laqabini Aqcha der erdilar. Ul ko'p dono va *botamiz* erdi” [Xorazm dostonlari.5:19]. Yana doston tilida buzoq ma'nosida *govsola* (*go'sola*) so'zining ishlatilishi ham yuqorida doston shakllanishida bilingvistik muhit vakili o'rni borligini ko'rsatadi: “Alqissa, G'arib bog'bonni *govsolalarini* boqib yurur erdi” [Xorazm dostonlari. 5:20].

Ko'rinadiki, doston tili Xorazm dostonlari tilidan tubdan farq qilmasa ham, o'zining qator o'ziga xosliklariga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matquliyeva M. “Oshiq G'arib va Shohsanam” dostonining qo'lyozmalari haqida // “Munavvar umr”. Urganch, 2005.
2. Matquliyeva M. “Oshiq G'arib va Shohsanam” dostonining matniy tahlili// Филологические исследования. Т. XIII. – Ургенч, 2006.
3. Ro'zimboyev S. Xorazm dostonchiligi epik an'analari. Urganch, 2008.
4. Sobirova N. Xorazm baxshi va xalfachilik an'analari. – Toshkent: Fan, 2021.
5. Xorazm dostonlari. Oshiqlar bo'stoni. 2-kitob. – Urganch: “Xorazm”, 2005.
6. O'razboyev A. Ogahiyning tarixiy asarlari leksikasi.– Toshkent: Muharrir, 2013.
7. Shamsiyeva Z. Buxoro vohasi o'zbek va tojiklarida “beshikkerti” udumi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023.